

**TUPROQ UNUMDORLIGIGA SIDERAT UCHUN YETISHTIRILGAN
MOSHNING AHAMIYATI.**

Ismailov Maxsetbay Embergenovich

*Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti
q.x.f.n.docent.*

maxsetismailov25@gmail.com

Xojabaeva Tolg'anay Fayzulla qizi

*Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti
magistr*

xojabaevatolganay@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada siderat uchun yetishtirilgan moshning tuproq unumdorligiga ta'siri haqida olib borilgan tajriba natijalari aks ettirilgan. Mosh yetishtirishda ko'k massa hosildorligini 2025-yilda aniqlaganimizda nazorat variantida (1-var) 28,7 s/ga, qolgan takrorlanishlarda o'rtacha 35,0-39,7 s/ga ko'k massa hosildorligiga erishildi. Bu esa o'z navbatida 2025 yilning ko'k massa hosildorligi 2024 yilga nisbatan yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Mosh, tuproq unumdorligi, ko'k o'g'it unumdorligi.

Аннотация: В статье представлены результаты эксперимента, посвященного влиянию маша, выращенного на сидераты, на плодородие почвы. При определении урожайности зеленой массы при возделывании маша в 2025 году в контрольном варианте (1-й вариант) урожайность составила 28,7 ц/га, а в остальных вариантах в среднем 35,0-39,7 ц/га. Это, в свою очередь, указывает на то, что урожайность зелёной массы в 2025 году была выше, чем в 2024 году.

Ключевые слова: маш, плодородие почвы, плодородие зеленого удобрения.

Abstract: The article reflects the results of an experiment on the influence of mung beans grown for green manure on soil fertility. When determining the yield of green mass in the cultivation of mung bean in 2025, in the control variant (1st variant), an average yield of 28.7 c/ha was achieved, and in the remaining variants, an average yield of 35.0-39.7 c/ha was obtained. This, in turn, indicates that the green mass yield in 2025 was higher than in 2024.

Keywords: Mung bean, soil fertility, green manure fertility.

Kirish: So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida yer unumdorligini oshirish, sho'rlanish jarayonini kamaytirish va ekologik muvozanatni saqlash maqsadida siderat ekinlardan samarali foydalanish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. Mosh tuproqning fizik-kimyoviy tarkibini yaxshilab, unda biologik azot to'planishini ta'minlaydi va keyingi ekinlar uchun tabiiy ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va uslubiyat: G.Orinbayeva [3] tomonidan o'tkazilgan tajribalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, takroriy ekin sifatida o'tmishdosh-donli ekinlar mosh, loviya va soyani ekib, ularni 75 kg/ga azot, 75 kg/ga fosfor va 50 kg/ga kaliy bilan oziqlantirilganda don hosildorligi 15,5, 12,7, 23,3 s/ga ni tashkil etganligi aniqlangan. O'g'itlash tizimi bo'yicha olib borgan ishlarida mineral o'g'itlarning me'yorda qo'llanilishi moshning ildiz tizimini rivojlantirishi va don hosilining sifatini yaxshilashi aniqlangan. Ayniqsa, fosforli o'g'itlar vegetatsiya davrini qisqartirib, hosilning pishish muddatini bir necha kunga oldinga surganini ta'kidlashgan.[1;38-43]

Demak, sug'oriladigan yerlarda bir yilda ikki marta hosil yetishtirishda mosh, soya, loviya, makkajo'xori va kungaboqarni takroriy ekin sifatida yetishtirib, ulardan yuqori va sifatli hosil olish mumkin. Shuning uchun ham aholi ehtiyojini oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan don mahsulotlari bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri bo'lgan dukkakli-don ekinlari maydonini oshirishning asosiy imkoniyati ularni takroriy ekinlar sifatida ekishdan iborat bo'lishi kerak. [4.255-257].

O'g'itlash tizimi bo'yicha olib borgan ishlarida mineral o'g'itlarning me'yorda qo'llanilishi moshning ildiz tizimini rivojlantirishi va don hosilining sifatini yaxshilashi aniqlangan. Ayniqsa, fosforli o'g'itlar vegetatsiya davrini qisqartirdi.

A.Mansurov [5] ning aytishicha, tuproqning suv o'tkazuvchanlik xususiyatlarining yaxshilanishi, nafaqat kuzgi bug'doydan keyin ekilgan takroriy ekinlarga, balki ularning to'g'ridan-to'g'ri ekish me'yoriga ham bog'liq, bunda soyani gektariga 260, moshni 100 ming, tariqni 2,5 mln va jo'xorini 80 ming tup ko'rinishida saqlash ijobiy natija berib, tuproqda o'tadigan barcha biologik jarayonlarning faol o'tishiga hamda tuproq unumdorligining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

X.N.Atabayeva [2]; I.A.Isroilov tomonidan o'tkazilgan ko'plab tajribalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, dukkakli-don ekinlari - mosh va soyani takroriy ekin sifatida erta muddatlarda ekib, ularni 100 kg/ga fosfor va 50 kg/ga kaliy bilan oziqlantirilganda don hosildorligi 20,3-23,2 s/ga ni tashkil etganligi aniqlangan.

Natija: Asosiy ekin sifatida ekilgan moshni yig'ib olgandan keyin, yer bo'sh turmasligi va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida barcha variantlarga siderat uchun mosh ekildi. Qoraqalpog'iston sharoitida siderat uchun mosh o'simligi ekilishining asosiy sababi, bizning sharoitimizga tuproq sho'rlanishiga, suv yetishmasligi va boshqa noqulay sharoitlarga to'liq moslashganligi uchun moshni siderat sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

Takroriy ekin sifatida moshning "Durдона" navini ekish uchun 25 avgust kuni yer ekishga tayyorlandi. 27-avgust kuni moshning "Durдона" navi ekildi va ortidan sug'orildi. 12 oktyabr kuni yerga siderat ekin sifatida ekildi.

Moshning ko'k massa hosildorligi. (2024-2025 yy.)

Variantlar	2024-jil	2025-jil	Ortacha
1	28.7	28.7	28.7
2	31.7	35.0	33.3
3	34.2	38.0	36.1
4	35.2	37.7	36.45

Moshning o'rtacha hosildorligi hudud sharoitiga qarab 1,2-1,8 t/ga ni tashkil etadi. Ammo to'g'ri agrotexnika - chuqur haydash, o'g'itlashning muvozanatli tizimi, sug'orishning me'yorda tashkil etilishi va zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish natijasida hosildorlikni 2,0-2,5 t/ga gacha oshirish mumkin. Moshning 1-variantidagi (nazorat) ko'k massa hosildorligi 28,7 s/ga ekanligi aniqlandi. Takrorlashlar bo'yicha o'rtacha ko'k massa hosildorligi 33,3-36,45 sentner ko'k massa olishga erishildi. Moshning ko'k massa hosildorligi bo'yicha 2025 yilgi hosilning 2024 yilga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Mosh o'simligining ildizida yashovchi rizobakteriyalar atmosferadagi erkin azotni gektariga 200 kg to'planishini ta'minlaydi. Mastani siderat sifatida ekish nafaqat tuproq unumdorligini yaxshilaydi, balki mineral o'g'itlar sarfini kamaytirib, ekologik muvozanatni ta'minlab hamda yer resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bois mosh o'simligini siderat sifatida o'rganish, uning yashil massasi orqali tuproq azot balansiga, strukturasi va biologik faolligini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa: Ma'lumotlarga asoslangan holda moshni siderat sifatida ekish, tuproqning azot balansini tabiiy yo'l bilan tiklaydi, sho'rlanish darajasini kamaytiradi va meliorativ holatini yaxshilaydi, mineral o'g'itga bo'lgan talabni 20-30% gacha kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kenjebayev, B. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida takroriy ekin sifatida mosh yetishtirish imkoniyatlari. Nukus Davlat Agrar universiteti ilmiy axboroti, No2, [38-43]
2. Otaboyeva X.N. Mamedov N.M. - Kuzgi bug'doydan keyin ekilgan maxsar o'simligining hosildorligi. // Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Toshkent. 2007. S. 251-253.
3. O'rinboyeva G. Takroriy ekinlar va tuproq unumdorligi. // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. No 9. 2009. 20-b.
4. Bo'riev Ya. - Almashlab ekish tizimida mosh yetishtirish. // O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida suv va resurs tejankor agrotexnologiyalar. Toshkent. 2006. B. 255-257.
5. Mansurov A. "Takroriy ekin turlarining tuproq agrofizik xususiyatlari, g'ovakligi va suv o'tkazuvchanligiga ta'siri" // "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnalining "Agro ilm" ilmiy ilovasi. - Toshkent, 2012. No1 (21) -son. B. 25-26.